

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)


PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Nurmatova Zarifa Abdiraup qizi IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
2. O‘tamuradova Malohat ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
3. Петросьянц Эрнст Ашотович ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
5. Gulamova Malika Yakubovna O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDAH USULLARI.....	27
6. Achilova Ozoda Farxodovna YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
7. Nematillayevna Zubaydova PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
11. Malika Solieva PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
13. Shamuradova Naima Muxtarovna DISCOURSIIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA‘SIRI (“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida).....	70
15. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI..	74
16. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	79
17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

18. Зулфанова Нигина Нуритдиновна СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
19. Turakulova Sitora Fazlidinovna JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmuratovna "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
21. Erkinova Ruxshona O‘tkirovna, Kurbonova Gulnoza Irkinovna YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
22. Qayimova Maftuna Tursunovna OILAVIY MUHITDA QIZLARING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O‘ZBEKISTONDA).....	114
23. Хасанова Мавлюда Батыралиевна ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O‘LIMNING YANGI IFODASI.....	139
27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE‘RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA‘MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna O‘ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
31. Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOIYILLARI.....	170
33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART


Davlatova Hulkaroy Uktamovna

Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasida o'qituvchisi, (PhD) dotsent

Andijon davlat chet tillari instituti,

Email: davlatovahulkaroy@gmail.com

TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.18734042>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tilshunoslikda gender tushunchasining tadqiqi bayon etilgan. Tadqiqot natijasiga, gender tushunchasining muloqotdagi tutgan o'rni va shakllanish jarayonlari batafsil yoritilgan. Shu bilan birga, tilshunos olimlarning gender tushunchasi bo'yicha olib borgan izlanishlari batafsil o'rganildi va shular asosida yetti yoshgacha bo'lgan o'g'il va qiz bolalar nutqi tahlil etildi. Kichik tadqiqotimiz so'ngida, yosh bolalar o'rtasidagi gender farqlar uch yoshdan boshlab shakllanib, yetti yoshgacha ular o'rtasidagi farq aniq sezilishni boshlaydi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, gender, davr, yosh, o'g'il, qiz, nutq, tushuncha, yetti, yosh bolalar, gender farqlar

Hulkaroy Uktamovna Davlatova

Assistant Professor (PhD), Department of Theoretical Aspects

of the English Language

Andijan State Institute of Foreign Languages

Email: davlatovahulkaroy@gmail.com

THE STUDY OF THE CONCEPT OF GENDER IN LINGUISTICS: EXAMLES OF CHILDREN'S SPEECH

ABSTRACT

This article explores the study of the concept of gender in linguistics. The findings highlight the role of gender in communication and the processes of its formation. Furthermore, the research carefully examines linguistic scholars' investigations into the concept of gender, and based on this, the speech of boys and girls under the age of seven was analyzed. The study concludes that gender differences among young children begin to emerge at the age of three and become clearly noticeable by the age of seven.

Keywords: linguistics, gender, period, age, boy, girl, speech, concept, seven, young children, gender differences

Давлатова Хулкаррой Уктамовна

Доцент (PhD), кафедра теоретических аспектов английского языка

Андижанский государственный институт иностранных языков

Email: davlatovahulkaroy@gmail.com

ИЗУЧЕНИЕ КОНЦЕПТА ГЕНДЕРА В ЛИНГВИСТИКЕ: НА ПРИМЕРЕ ДЕТСКОЙ РЕЧИ**АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматривается изучение концепта гендера в лингвистике. Результаты исследования подчеркивают роль гендера в коммуникации и процессы его формирования. Кроме того, подробно анализируются исследования лингвистов, посвященные понятию гендера, и на этой основе проводится анализ речи мальчиков и девочек в возрасте до семи лет. В заключение сделан вывод о том, что гендерные различия у маленьких детей начинают проявляться с трёхлетнего возраста и к семи годам становятся явно заметными.

Ключевые слова: лингвистика, гендер, период, возраст, мальчик, девочка, речь, понятие, семь, маленькие дети, гендерные различия

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmidan tilshunoslikda sotsiolingvistika, pragmatika, psixolingvistika, nutq va muloqot nazariyasi kabi yangi yoʻnalishlar rivojlana boshladi, shu bilan birga, tadqiqotchilar pragmatika doirasida bir qator izlanishlar oʻtkazish bilan birga, asosiy eʼtiborni insonlarning psixofiziologik, ijtimoiy xususiyatlarning (gender, yosh, taʼlim darajasi) tilga taʼsiriga eʼtibor bera boshladilar. Tilshunoslikda gender tadqiqotiga qiziqish olimlar oʻrtasida XX asrning oxirida paydo boʻla boshladi va inson shaxsiyatiga munosabatning yangi nazariyalari, inson faoliyatining ijtimoiy-psixologik tuzilishi, odamlar tomonidan ijtimoiy hodisalarning shakllanish jarayoni koʻrib chiqiladi. Yangi yondashuvning asosiy talablaridan biri gender tadqiqotiga mos keluvchi soʻzlar, soʻz birikmalaridan foydalanishni, til hodisalarining til va muloqotda namoyon boʻlishini oʻrganishga chorladi.

Tilshunoslikning eng soʻnggi yangiliklari qatoriga antropotsentrik yondashuvga asoslangan gender tadqiqotlari alohida oʻrin tutadi. Gender tushunchasi ostida maʼlum bir madaniyatning yigʻindisi, ayol va erkaklarning jamiyatdagi oʻzini tutishi, madaniyati, ularning bir-biri bilan munosabatlarini belgilaydigan xususiyatlariga aytiladi.

Tilshunos olimlar tomonidan olib borilayotgan gender tadqiqotlarining asosiy maqsadi, ijtimoiy hayotimizning erkak va ayollarga munosabatini, insonlarning u va bu jinsga mansubligi bilan bogʻliq xatti-harakati omillariga qaratilgan. Tilda jins tushunchasi haqidagi dastlabki eslatmalar qadimgi davrlarga toʻgʻri kelishiga qaramay, mazkur gʻoyaga zamonaviy tilshunoslikda 1975 yilda G.Rubinning jins konseptiga oid ishlari nashrdan chiqqandan soʻng kirib keldi. Gender boʻyicha keyingi tadqiqotlar erkak va ayollar oʻrtasidagi lisoniy farqlar biologik jins bilan oldindan belgilanadi degan tushunchaga asoslangan edi.

Asosiy qism. Olimlar orasida koʻzga koʻringan vakillaridan O. Espersen, E. Sepir, F.Mautnerlarning til va gender mavzusiga qiziqishi va olib borgan tadqiqotlari tufayli, bu fan tilshunoslar oʻrtasida bahs-munozaraga va qiziqishlarga sabab boʻla boshladi. Tadqiqotchilarning izlanishlarida asosan erkak va ayollarning nutqi oʻrtasidagi farq, ayol va erkak nutqining oʻziga xos xususiyatlari, ularning soʻzlarni ishlatish borasidagi imkoniyatlari haqida soʻz yuritiladi. Olimlarning fikricha, qoʻpol soʻzlar va iboralardan ayollar kam foydalanadilar. Erkaklarning til ijodkorligi ayollarga qaraganda yuqori hisoblanadi.

Ayniqsa, A.V.Kirilina tomonidan XX asrning ikkinchi yarmiga kelib jinsning ikkita asosiy guruhga ajratib oʻrganilishi ahamiyatlidir. Ulardan birinchisi, tilda genderning aks etishi xususida boʻlib, olim mazkur tadqiqotida jins kategoriyasi, soʻz boyligi, jinsning soʻzlovchi nutqiga taʼsirini, qaysi til vositalari erkaklar va ayollarga tegishli ekanligidir. Navbatdagisi erkak va ayolning muloqot xulqi, ular nutqining oʻziga xosligi va uslubidir.

Gʻarb olimlari tomonidan gender mavzusi nazariy va amaliy jihatdan uzoq vaqtlar davomida samarali oʻrganilgan. Muvaffaqiyatli izlanishlarning natijalari va gender stereotiplari, erkak va ayollarning xulq-atvorlari maxsus jurnallarda atroflicha yoritilgan. Bir guruh olimlar (S. Basov, X. Lips, R. Asmore, F. Del Boka, I. X. Freeze, C. Stoll, G. Fauconnier, S. L. Gilman, K. Deaux, L. Lyuis) tomonidan konseptual asosda gender tadqiqotlari boʻyicha olib borilgan ilmiy izlanishlar monografiyalarda stereotiplar, yondashuvlar tarzida namoyon boʻlgan.

O.V.Berngardtning “Речь ребенка-билингва как предмет лексикографического описания (ситуация русско-немецкого двуязычия)” ilmiy izlanishida yozilishicha, taniqli rus olimlaridan V.K.Xarchenko, S.N.Seytlin, I.P.Amzarokovalar bolalar nutqini o‘rganish bo‘yicha, psixolingvistika bo‘yicha esa N.I.Lepkaya, A.K.Markova, K.F.Sedov, A.M.Shaxnarovich, K. Vagner, A.A.Leontyevlar samarali tadqiqotlar olib borganlar. Namlari keltirilgan olimlar gender jihatdan o‘g‘il va qiz bolaga go‘daklik chog‘idanoq tarbiya usuli boshqacha bo‘lishini, ona-onalar ularga kiyimlar sotib olishlarida va rang tanlashlarida, bolalarning ehtiyoji uchun nimaiki zarur bo‘lsa, barchasini ularning jinsiga qarab tanlashlari yoritilgan.

O‘g‘il va qiz bolalarning nutqini kuzatishlarimiz natijasida bolalarga xos bir necha jihatlar diqqatimizni tortdi. Bizga tadqiqot obyekti vazifasini Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, O‘rikzor ko‘chasi, 49-uyda yashovchi Xolisxon aya xonadonida tarbiyalanuvchi 3 qiz va 4 o‘g‘il o‘sadi. Oilada muhitga bir so‘z bilan buvilari nabiralarning tarbiyasiga, ayniqsa, nutqiga alohida ahamiyat beradilar deb ta‘rif berish mumkin.

Salomlashish, xayrlashish, kattalar bilan muloqot qilishga oid Xolisxon ayaning o‘g‘itlari nabiralarning og‘zaki nutqida o‘z ifodasini topgan. Buvisi tomonidan bir xil o‘rgatilgan bo‘lsa-da, olti yashar Xadicha va to‘rt yashar Usmon ishdan kelgan dadasiga salom berib, hol-ahvol so‘rashda bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Xadicha hushchaqchaq va quvnoqlik bilan: “Assalomu alaykum, adajon, charchamasdan ishlab kevossimi?” deb dadasi bilan quchoqlab ko‘rishdi. Usmon esa jiddiy qiyofada: “Assalomu alaykum, ada, kevossimi?” deb, xuddi katta odamlardek qo‘l berib ko‘rishdi. Keltirilgan misoldan ko‘rinib turibdiki, o‘g‘il va qiz bolaning xarakteri yoshligidan shakllanadi va bu ularning nutqida, muloqotga kirishuvda namoyon bo‘ladi. Gender o‘rtasidagi farq ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida yaqqol ko‘rinadi. Masalan,

– O‘g‘il bola nega sochiga chiziq chizib olishi kerak (soch oldirishda)?

– Qizlar qarashi uchun-da (7 yosh o‘g‘il bola nutqidan).

Sakkiz yashar Niginaga “Bola tilidan” ko‘rsatuvi boshlovchisi Ruxshona “Mo‘ylov nima?” deb savol berilganda, “mo‘ylov – soch” deb javob berdi.

Shvetsariyalik mashhur tilshunos olim J.Piaje tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, bolalarda juda kichiklik vaqtdan boshlab xarakter, xulq-atvorining o‘ziga xos xususiyatlari shakllanishni boshlaydi, bunday fe‘l-atvor, asosan, tengdoshlari bilan muloqotga kirishishda namoyon bo‘ladi. Olim bolalar ongining rivojlanishini ijtimoiylashuvdan oldingi – nazoratsiz va tashqi muhit ta‘sirida boshqariladigan davrlarga ajratdi.

- O‘sha gap – gap-a? – deb ko‘zimga sinchilandi Qulqul Davedivich. – Birovga indash yo‘qmi axir?

- Nima qiz bolaga o‘xshayapmanmi? **O‘g‘il bolaning gapi bitta bo‘ladi.** Tamom!

Boramizmi, - deb so‘radi Egamberdi.

- Albatta boramiz, - dedi Karimberdi, - **yolg‘onchilik o‘g‘il bolaga yarashmaydi.**

- Egamberdi qizishib, qizarib-bo‘zarib borayotgan o‘rtog‘ining biqiniga tez-tez turtib:

- **Bos, bos!** – deb turibdi.

- Och deyaqman.

- Ochmayman. **Oyi, Rashidni qarang, eshikni tepyapti.**

- Qani tepganim, chaqimchi, etigimni qorini qoqyapman, - dedi jahli chiqib Rashid.

Sanobar opa ishdan qaytsa, televizor yana buzilib qolibdi. **Farida bidillab hammasini aytib berdi.**

- Oyi, mana buningizni qarang, **tilini chiqarib, meni masxara qilyapti,** - o‘pkasi to‘lib chinakamiga yig‘lamsirab dedi Farida.

Keltirilgan misollardan anglashiladiki, o‘g‘il va qiz bolalar nutqining o‘ziga xosligi ularning muloqot jarayonidan yaqqol namoyon bo‘ladi. Birinchi misolda sevimli bolalar yozuvchisi Anvar Obidjonning hikoyasidagi bosh qahramon Mo‘ttivoyning yoshi katta insonlar, ayniqsa, oiladagi erkaklarning tarbiyasi ta‘sirida shakllangan nutqida “O‘g‘il bolaning gapi bitta bo‘ladi” iborasi qo‘llanilgan. Ikkinchi misolda, hikoya bosh qahramonlaridan biri Egamberdining nutqidan olingan jumla (yolg‘onchilik o‘g‘il bolaga yarashmaydi) orqali, uning ko‘p kitob mutolaasi bilan bandligi natijasida, qissalardagi ayrim iboralar uning nutqiga ko‘chganligini ko‘rishimiz mumkin. Navbatdagi

misolda ham ikki do'st –Karimberdi va Egamberdilarning nutqidan misol olingan. Egamberdi ziyoli oilada yashaydi, lekin onasi uning kichikligida vafot etgan, o'gay onasi, singlisi va dadasi birga yashaydilar, uning nutqida ayrim so'zlar ba'zida kitobiy, gohida esa o'g'il bolalarga xos ayrim qo'pol so'zlarni ham uchratishimiz mumkin. Keyingi keltirilgan misolda esa aka-singil nutqidan namuna ko'rish mumkin. 8 yosh Farida akasi Rashidning qo'pol muomalasidan onasiga shikoyat qilmoqda: “Oyi, Rashidni qarang, eshikni tepyapti”. Rashid (6-sinf) oilaning yagona o'g'il farzandi, oilada ota-onasi uning yaxshi ta'lim olishi uchun barcha sharoitni yaratib berganlariga qaramay, maktabda yaxshi o'qimaydi, vaziyatdan chiqish uchun ko'proq yolg'on so'zlarni qo'llashi uning nutqida namoyon bo'lmoqda. O'g'il bolaga qaraganda, qizlar xabarlarini tezroq yetkazishga oshiqadilar. Buni biz Faridaning nutqida ko'rishimiz mumkin (“tilini chiqarib, meni masxara qilyapti”), o'g'il bolaga qaraganda qiz bolaning gapga ustaligini yuqoridagi keltirilgan misollardan ham ko'rishimiz mumkin. Bolalar nutqi tug'ilgan vaqtlaridan boshlab, dastlab, oila muhitida, uch yoshdan keyin esa bolalar bog'chasida tengdosh do'stlari bilan suhbat, mashg'ulotlar davomida shakllanib boradi va faol lug'atni tarkibini o'zlashtira boshlaydigan. Aynan qaysi so'z va iboralar ularning faol lug'at tarkibidan o'rin olishi esa atrofdagi muhitga bog'liqdir. Oiladagi ishlatiladigan narsa-buyumlarni yoki o'yinchoqlarini nomini o'zlariga aytilishi oson bo'lgan nom bilan ataydilar. Shu ma'noda quyidagi misol ham diqqatga sazovor: Muslimaxon (3 yosh-u, 2 oylik) “Nonni xompaxtaga qo'ydim, ayo” (Aya, nonni xontaxtaga qo'ydim), Xojimuhammad (3 yosh-u, 2 oylik) “Meni pachiyam, vichchetim, chamaqatim boy” (Mening mashinam, velosipedim, samokatim bor). Muslimaxon va Xojimuhammadlar bog'chaga bormay, uyda ota-onasi nazorati ostida voyaga yetmoqdalar. Ikkala bolaning ham otalari quruvchi, onalari uy bekasi. Muslimaxonning nutqidagi “xompaxta” “xontaxta”ning fonetik moslashtirilgan shaklidir.

Natijalar/Muhokamalar. Tadqiqotlarimiz davomida, qizlarning nutqi, o'g'il bolalarning nutqiga qaraganda erta rivojlanishining guvohi bo'ldik. Fikrimizning tasdig'i sifatida Xojimuhammadning nutqini keltiramiz. U muloqotga kirishish mobaynida, jarangli undosh harflarni jarangsizga ko'proq almashtirib yuboradi: “Tatam chomcha, kachapta apteyadi” - (dadam somsa, kolbasa olib keladi) “Amaqi qo'ya obqeying” - (amaki koka-kola olib keling)

Psixolog olimlar bolalar nutqining shakllanish bosqichi bolalar bog'chasidan boshlanadi, deb J.Piajening izlanishlari(bolalardagi ong rivojlanishining nazoratsiz, ekstralingvistik omillar ta'sirida davrlarga bo'linishi)ga qarshi fikr bildiradilar. Fransuz psixologi A.Ballon esa bola xarakteri shakllanishining asosiy omillarini tashqi ijtimoiy muhit ta'sirida ko'radi.

– Buvijon, sinfimizga yangi qiz kelibdi. Sinfdozlarim faqat uni maqtashyapti.

A'lo baholarga o'qirmish. Yana, yana... u judayam chiroyli ekan.

– Xo'sh, buning senga nimasi yoqmayapti?! Sinfingda yana bir a'lochi o'quvchining ko'paygani yaxshi emasmi?! – xayron bo'ldi Farog'at buvi.

– Buning nimasi yaxshi buvi?! Axir, men sinfboshi bo'lsam. Sinfimda mendan chiroyli qiz bo'lishini, ustiga ustak yaxshi o'qib, mendan o'zib ketishini istamayman. **Hoynahoy, u mening o'rnimga sinfboshi bo'lishga ham harakat qilayotgandir.**

– Albatta bo'laman, - Qosimjon xatni boshqa o'rtoqlariga ham ko'rsatmoqchi bo'lib tashqariga chiqa boshlagan edi, Tohir uning yo'lini to'sib jiddiy, lekin allaqanday tashvishli bir ohangda, - zo'r shoir bo'lib ketsang, meni o'zingga shofyorlikka olasanmi? – so'radi.

– Menga baribir.

– **Qani, qo'lni ber, kelishdik, unutmaysan-a?**

– **Unutgan nomard.**

– Sezishimcha, Egamqul qaysar, bir so'zli, boriga qanoat qilmay, to'xtamay oldinga chopaveradigan yigitcha ekan. Karimberdi bo'lsa Ollohga shukur, sabrli, qanoatli yigit.

Keltirilgan o'g'il va qiz bolalarning muloqotidan ma'lumki, ularning nutqidan har birining o'ziga xos xususiyatlarini topish mumkin. Masalan: 14 yosh qiz buvisiga aytishicha, u o'qiydigan sinfga yangi qiz kelgani va u qizning a'lochiligi, go'zalligi, xushmuomalaligi uni tashvishga solmoqda. Keyingi hikoya qahramoni 13 yoshli Qosimjon nutqida “unutgan nomard” birikmasini

qo‘llash orqali do‘sti Tohirga va‘da bermoqchi. Navbatdagi misolda esa, hikoya qahramonlari Egamberdi va Karimberdilarning xarakteriga xos xususiyatlar, so‘zlovchi tomonidan kitobxonga yetkazilmoqda.

G.Iskandarova o‘z izlanishlarida bolalar nutqining rivojlanishida ota-onaning yoshini ahamiyati haqida o‘z fikrlarini bildirib, “Bola aqliy va lisoniy faoliyatining rivojlanishida ota-onaning yoshi ham katta ahamiyatga ega. Agar bolaning ota-onasi yoshi jihatdan kattaroq bo‘lsa, ya‘ni 35-40 yosh yoki undan ham katta bo‘lsa, ular farzandini nutqi bilan jiddiy shug‘ullanadi. Kuzatishlarga ko‘ra, ota-onasi yoshi jihatdan kattaroq bo‘lgan bolalar ertaroq gapira boshlaydi, ularga qaratilgan nutqni tez ilg‘ab, tushunib oladilar. Bunday bolalar nutqida yoshi katta odamlar nutqiga xos xususiyatlar kuzatiladi”, -deb ta‘kidlaydi.

Bolalar nutqining gender jihatlarini o‘rganish maqsadida maktabgacha va maktab yoshidagi bog‘cha tarbiyalanuvchilari nutqi ustida tajriba o‘tkazdik. Ko‘rgazmali vositalar kuzatuv jarayonimizning asosiy ish quroli bo‘ldi. Bahor va yoz oylaridagi insonlarning kundalik ish faoliyati tasvirlangan rasmlar asosida qatnashuvchilarimizdan yakka tarzda savol-javob tariqasida suhbat olib bordik. Tajriba jarayonimizda hammasi bo‘lib maktab yoshidagi 18 nafar va maktabgacha yoshdagi 8 nafar ishtirokchi qatnashdilar. Bolalarning har biriga rasmlarni tasvirlash, odamlarning nima ish bilan bandligini aytish tushuntirildi. “Rasmda nimani ko‘ryapsiz?”, “O‘g‘il bolalar va qizlar nima qilyaptilar?” kabi savollarga bergan javoblaridan quyidagicha manzara hosil bo‘ldi:

1. Maktab yoshidagi bolalarning nutqidan ma‘lumki, ular rasmlarni tavsiflashda va gaplarni bir-biriga qo‘shib hikoya tuzishda qiynalmay o‘z fikrlarini bayon qila oldilar. Ishtirokchilarimiz orasida qizlarning so‘z boyligi ko‘proqligi rasmlarni tasvirlash jarayonida yaqqol namoyon bo‘ldi. Ular gullarning, qizlarning o‘yin va ish faoliyatini tasvirlashga ko‘proq e‘tibor berdilar. Masalan, Ne‘matjonova Charosxon rasmni tasvirlashda qizlar gul ekyapti, gullar o‘syapti, 3 ta qiz arg‘amchi o‘ynayapti kabi javob berdi. Qizlar ko‘proq o‘zi yoqtirgan, ularga xos bo‘lgan harakatlarga e‘tibor qaratdi va grammatik, fonetik xatolarsiz aytdi.

2. Rasmlarni tasvirlashda o‘g‘il bolalar o‘zlarining faoliyatiga oid so‘zlardan, jummalardan foydalandilar. Masalan, Rahmonov Muhammadyusuf katta odamlar uy quryaptilar, kichkinalar yordam qilyaptilar, qum toshyaptilar, rasmda 5 ta daraxt kabi javob berdi. Yuqoridagilarni nutqdagi gender farqlar sirasiga kiritish lozimdir.

3. Maktabgacha yoshdagi kichik guruh tarbiyalanuvchilarining o‘z ota-onasining kasbi, yashash manzili va oila a‘zolarining soni kabilar so‘ralganda ijtimoiy jihatlar va gender tavsiflovchi xususiyatlar ko‘zga tashlanmadi. Ammo ularning javoblaridan boshqa xulosaga kelish mumkinki, 3 yoshdagi bolalardan qiz bolalar nutqi ravonroq va tasviriy batafsilroqdir. Demak, bolalar nutqidagi gender farqlari 3 yoshdan keyin, ammo 6 yoshdan avval ko‘rina boshlaydi. Bunda ijtimoiy gomogen muhit bu farqlarni kechiktirsa, geterogen muhit ularni tezlashtiradi.

Darhaqiqat, insondagi gender farqlari hayotimizning hamma jabhalarida ko‘rinishining guvohi bo‘lamiz. Ushbu jihat oilada, kundalik hayotimizdagi odob-ahloq qoidalarida, ish sohasida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Baxtiyor (6-sinf), ko‘proq yolg‘on gapiradi, maktabda yaxshi o‘qimaydi, o‘rtoqlari uni “maqtanchoq Baxti” deyishadi. Uning nutqiga e‘tibor bering:

Yolg‘on emas, rost. O‘lay agar! Ashula aytib dalaga ketayotsam, changalzor tomondan bitta ona bo‘ri halloslab chiqdi-da, yeyman deb, tishlarini takillatib menga tashlanib qoldi. Qo‘limdagi behi tayoq bilan mo‘ljallab turib, mana bunday qilib miyasiga bir tushirgan edim, shilq etib yerga yiqildi. Darrov belimdagi qiyiqni yechib, og‘zini, ko‘zini bog‘ladim-da bo‘yniga qayishimni solib, fermaga qarab yetaklab qoldim.

– To‘xta, to‘xta. Sen hozir shilq etib yiqildi, deb eding-ku? – gapini bo‘lishdi o‘rtoqlari.

– Juda qiziq ekansizlar-ku, - dedi Baxtiyor xafa bo‘lib, - aytdimku, bo‘yniga qayishimni boylaganimcha u ham o‘rnidan turdi deb...;

Yana:

– Shertoy, buni nima qilasan.

– Ertaga bizdek polvonlarning o‘yini bo‘ladi, shunga qatnashaman.

– Jinni bo‘ldingmi,

- O‘zing jinni bo‘lgansan, **haqiqiy o‘g‘il bola uloq chopishi kerak.**
- Mana shunda chopasanmi?!
- Unda qaysinda chopaman, shunda chopaman-da?
- Mana shu otmi?
- Unda nima? Eshakning kattasi-ku bu.
- Eshakning kattasi ot bo‘lmay nima bo‘ladi?
- Baribir aytaman-da.
- Bilmasang, **erkaklarning ishiga aralashma**, tushundingmi?
- **Voy-bo‘-o‘, uzurasiz** (kechirim so‘rash ma‘nosida), Shertoy aka;

“She’s never coming back, Dennis. **Now stop crying. Only girls cry.** –

“Denis, u hech qachon qaytib kelmaydi. **Endi yig‘lashni bas qil. Faqat qizlar yig‘laydi**”. Dastlabki misoldagi 13 yosh Baxtiyorning nutqidan yolg‘on so‘zlarni ikkilanmay qo‘llashi, yoshligidan beri shunday shakllangani va shu so‘zlariga boshqalarni ishonitirishga harakat qilinishi sezilib turibdi. Bo‘ri yirtqich hayvon bo‘lganligi bois, odamlar orasida yashamaydi, lekin Baxtiyorning nutqidagi ayrim so‘zlariga (changalzor tomondan bitta ona bo‘ri halloslab chiqdi-da, yeyman deb, tishlarini takillatib menga tashlanib qoldi. Qo‘limdagi behi tayoq bilan mo‘ljallab turib, mana bunday qilib miyasiga bir tushirgan edim, shilq etib yerga yiqildi) katta yoshdagilarning ishonishi qiyin. Keyingi misoldagi hikoya qahramoni Shertoyning nutqidagi (haqiqiy o‘g‘il bola uloq chopishi kerak, erkaklarning ishiga aralashma) qo‘llagan ayrim so‘zlari faqat o‘g‘il bolaga xos bo‘lgan xususiyatlarni nazarda tutmoqda. Shertoyning suhbatdoshi nutqidagi (Voy-bo‘-o‘, uzurasiz) okkazonalizmi esa qizlarning so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lib, so‘zlardagi ayrim unli harflarni cho‘zib talaffuz qilishidan kesatish orqali uzr so‘rash ohangini tushunish mumkin. Bu so‘zni qo‘llashning o‘rniga **“bilmabman, kechirasan, uzr”** deyishi mumkin edi. Navbatdagi misolda 12 yosh bola nutqidan “Faqat qizlar yig‘laydi” gapi orqali suhbatdoshiga “o‘g‘il bolalar yig‘lamaydi” degan axborot implitsit ifodalanmoqda. Gender identifikatsiyaning vujudga kelishi biologik va o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi bilan ham bir biriga bog‘liq.

MTV telekanalida “Bola tilidan” ko‘rsatuvida 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarga boshlovchi Ruxshona tomonidan ularning yoshlariga mos savollar beriladi. Bolalarning boshlovchi bilan nutqiy munosabatga kirishish jarayonida ularning dunyoqarashi va oilaviy muhiti aniqlanadi.

Muhammadkarim(5 yosh)ga boshlovchi tomonidan berilgan savolga uning javoblariga e‘tibor bering:

- Osmonga tosh otib yuborilsa nima bo‘ladi?
- Hamma kelayotgan raketachilar o‘shanga tegadida, keyin pastga yiqilib tushadi.

Gender bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni o‘rganish natijasida ijtimoiy xayotimizdagi jins – bu sinf, yosh bilan birgalikda, hayotimiz tarkibining asosiy o‘lchovlaridan birini tashkil etuvchi tushuncha degan xulosaga keldik.

Tilni o‘zlashtirishda gender farqlar bo‘yicha tadqiqot olib borgan olim O.Yespersen izlanishlarining natijasida, qiz bolalar o‘g‘il bolalarga qaraganda ertaroq va tezroq gapirishni boshlashlari aniqlangan. Olim yosh bolalar o‘rtasidagi ko‘plab yomon odatlar (devorlarga chizish, o‘yinchoqlarni sindirish) va noqulayliklar o‘g‘il bolalarda tez-tez uchrashligiga amin bo‘lgan.

Shu o‘rinda gender tilshunosligi bo‘yicha salmoqli izlanishlar olib borgan olimlardan yana biri Makkobining tadqiqotlarini keltirish joizdir. Tadqiqotchi izlanishlari davomida 102 ta o‘g‘il va qiz bolalar nutqining rivojlanishini kuzatgan bo‘lib, ishtirokchilar 3-11 yoshli bolalardan tashkil topgan edi. 11 yoshdan keyin esa yigit va qizlarda o‘smirlik davrida farqlanishning yangi bosqichi sodir bo‘lishini aniqlaydi va quyidagi xulosaga keladi: “qizlar og‘zaki nutqi tildan to‘g‘ri foydalanish, grammatik tuzilishi va ifodasi bo‘yicha o‘g‘il bolalardan ustun, o‘g‘il bolalar bo‘lsa so‘zma-so‘z fikr yuritish va tushunishda ustun bo‘lishadi”.

Bir nechta olimlarning ishlarini o‘rganish natijasida, qizlarning nutqi o‘g‘il bolalarning nutqiga qaraganda oldinroq shakllanishi va ular to‘la jumalarni ertaroq ishlata olishlari va, ayniqsa, maktabning 5-9 sinfida chet tillarini o‘rganish va matnlar tuza olish kabi imkoniyatlarga qizlar ko‘proq ega ekani ta‘kidlanganining guvohi bo‘ldik. Kuzatishlarimiz natijasida ham shu holat ko‘zga tashlangani bizda savol uyg‘otdiki, nega qizlarning nutqi o‘g‘il bolalarning nutqidan farqi sezilarli

darajada yuqori? Axir ikkalasi bir oilada ota-ona tamonidan yetarli darajada g'amxo'rlikka sazovor, biologik jihatdan ham rivojlanishi bir xildir. Biz, shuningdek, ikki xil oilaviy muhitida voyaga yetayotgan va tarbiyalanayotgan bir xil yoshdagi chaqaloqlarni (o'g'il va qiz) ikki yildan ortiq vaqt davomida kuzatdik.

Muslimaxon (3 yosh-u, 2 oylik)

– **Chihchonlarni** to'yiga qo'yib bering – (Qunduz amaki qissalaridagi sichqonlarni to'yi tasvirlangan multfilmga qo'yib bering).

– **Tifloniz o'shib** qoldi – (telefoningiz o'chib qoldi).

Xojimuhammad (3 yosh-u, 2 oylik):

– **Qo'pqina botiylay to'yaman** – (Uch og'ayni botirlar multfilmini qo'raman)

– **Ona tiflonizi beyin, masa qo'yaman** - (ona telefoningizni bering, Masha ko'raman).

Keltirilgan misollarda kuzatuvchilarimizning yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, ota-onasining kasbi bir xil bo'lishiga qaramay, qiz bolaning nutqida, o'g'il bolaning nutqig'a qaraganda fonetik xatolar kam. Ikkala ishtirokchimizning ham nutqidagi gaplari gramatik jihatdan to'g'ri tuzilgan, lekin ayrim so'zlarda (Chihchon, tifloniz o'shib, qo'pqina botiylay to'yaman) fonetik xatolar bor.

Ikki nafar bolani kuzatishimiz davomida oilada ota-onalar, ayniqsa, onalar, bolalar tug'ilganidan boshlab ularning o'g'il yoki qizligiga qarab so'zlashuv uslubini tanlaganlar. Masalan, o'g'il bolalarning kelajakda kuchli, mard, jasur bo'lib voyaga yetishishlari uchun ularga jasur o'g'lim, pahlavonim kabi, qizlarga esa chiroyli, odobli, go'zal sifatlarni qo'shib deb murojaat qilganlar (uyimning farishtasi, oppoq qizim, aqligim). Bolalar nutqi, avvalo, oilada shakllanganligi uchun o'g'il bolalar o'zaro munosabatlarda dadalariga va oiladagi erkaklarga, qizlar esa onasiga va opalarining nutqlariga taqlid qilishadi. Natijada bolalarning nutqi ota-onaning nutqi asosida shakllanishni boshladi.

1-jadval

Yoshi teng bo'lgan o'g'il va qiz bola nutqidan namunalar

	3 yosh-u, 2 oylik Muslimaxon nutqidan namunalari	3 yosh-u, 2 oylik Xojimuhammad nutqidan namunalari
1	Boshim qachishyapti . (qichishyapti)	Tata men qatta bo'sham kaptila abeyaman . (Dada men katta bo'lsam kaptiva olib beraman)
2	Munshaq joyda uxlayman (Yumshoq joyda uxlayman)	Duli opam Lolo opamtan momon . (Guli opam Laylo opamga qaraganda yomonroq)
3	Mahat (rahmat)	Mumina meni ho'ppa til (Mubina meni ko'tarib ol)
4	Tifloniz o'ship qoldi. (Telefoningiz o'chib qoldi)	Onam meni tannatim , otam meni tavlatim (Onam meni jannatim, otam meni davlatim)
5	Kamron yaqqa boraman (Kamronlarning uyiga boraman)	Ona men cho'miyaman (ona men cho'milaman)
6	Ehta qush o'tiribdi. (2 ta qush daraxtda o'tirganini ko'rib aytdi lekin barmoqlari bilan 5 ni ko'rsatdi)	Momam diqqa qiyadi (Momam (amakini hotini) ukol qiladi)
7	Nonni hompataga qo'ydim ayo' (Nonni hontahtaga qo'ydim aya)	Moynana momon (boydada (dadani akasi) yomon)
8	Chihchonlarni to'yiga qo'yib bering (Sichqonlarni to'yi tasvirlangan multfilmni qo'yib bering)	Ona piltonizi beyin masa qo'yaman (ona telefoningizni masha ko'raman (multfilm qahramoni))
9	Dadam menga sorg'a olib keldi (Dadam menga sovg'a olib keldi)	Qo'pqina botiylay to'yaman (uch og'ayni botirlarni ko'raman)
10		Tatam chomcha, kachapta apteyadi . (Dadam somsa, kolbasa olib keladi)
11		Meni pachiyam, vichchetim, chamaqatim, boy . (Meni mashinam, velosipedim, samakatim bor)
12		Biy, iqqi, o'm bes , (bir, ikki, o'n besh)
13		Uytopishiz ona? (uydamisiz ona)
14		Men to'yimga qaeman (men qo'yimga qarayman)

15		Ona dumbiy yeman (ona dumbul yeyman)
16		Meni o'ytag'yayim to'p (meni do'stlarim ko'p)
17		Amaqi qo'ya obqeying (Amaki koka-kola olib keling)
18		Men toy ichapan (men choy ichaman)
19		Ayaqimi qating (oyog'imni qashlab qo'ying)
20		Men tetaman, chen qoyachan (men ketaman, sen qolasan)

Yuqorida aytib o‘tilgan tadqiqotchilarning nazariy fikrlaridan va tadqiqotlarimizdan ma’lum bo‘ldiki, tilni o‘zlashtirishda gender farqlar mavjud. O‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida tilni egallashdagi farqlar atrof-muhit ta’sirida yuz beradi. O‘g‘il bolalar til qoidalariga biroz e’tiborsiz, qizlar esa aksincha. Ular nutqidagi gender farqlar esa, ikkala jins vakillari aralash muhitda tezroq ko‘rina boshlaydi. Ota-onalar bolalarining erkin rivojlanishi uchun sog‘lom nutq muhitini yaratsalar, ularning tili ravon va begona unsurlardan holi bo‘ladi. Bolalarning tildagi farqlarini ko‘rib chiqish jarayonida, ularning nutqida ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, jinsi va boshqalar namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Ijtimoiy muhit nutq me’yorlarini, nutq an’alarini, stereotiplarini, shuningdek, tilning elementlari va tuzilishini o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Lisoniy ijtimoiylashuv – bu jamiyat bilan o‘zaro aloqada bo‘lish uchun shaxsni kommunikativ vosita sifatida o‘zlashtirish jarayonidir. Lisoniy ijtimoiylashuv jarayoni shaxsning butun hayoti davomida, ayniqsa, bolalik va o‘spirinlik davrida intensiv ravishda davom etadi. Lisoniy ijtimoiylashuv dunyoni bilishga, insonning har tamonlama rivojlanishiga va jamiyatdagi xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirishga yordam beradi. Bolalar faol lug‘at tarkibidan qaysi so‘z va iboralar o‘rin olishi atrof-dagi muhitga bog‘liqdir.

Tilni o‘zlashtirishda gender farqlar mavjud bo‘lib, o‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida tilni egallashdagi farqlar atrof-muhit ta’sirida yuz beradi. O‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida tilni egallashdagi farqlar atrof-muhit ta’sirida yuz beradi. O‘g‘il bolalar til qoidalariga biroz e’tiborsiz, qizlar esa aksincha. Ular nutqidagi gender farqlar esa, ikkala jins vakillari aralash muhitda tezroq ko‘rina boshlaydi. Ota-onalar bolalarining erkin rivojlanishi uchun sog‘lom nutq muhitini yaratsalar, ularning tili ravon va begona unsurlardan holi bo‘ladi. Bolalarning tildagi farqlarini ko‘rib chiqish jarayonida, ularning nutqida ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, jinsi va boshqalar namoyon bo‘ladi. Qizlarning nutqi o‘g‘il bolalarning nutqiga qaraganda oldinroq shakllanadi va ular to‘la jummalarni ertaroq ishlata olishadi.

Adabiyotlar.

1. Davlatova Hulkaroy Uktamovna. (2021). Psycholinguistic research of children's speech by scientists. Researchjet Journal of Analisis and Inventions. DOI: <https://doi.org/10.17605/osf.io/ud96m> Volume 2, Issue 5 May,
2. Davlatova, H. (2022). BOLALARNING AQLI VA NUTQI RIVOJLANISHIDA OILANING TA’SIRI. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 51-51.
3. Davlatova Khulkaroy. (2023). The role of psycholinguistics in the study of a foreing languages. international engineering journal for research & development. VOL. 8 NO. 4: VOLUME 8
4. X.Y Давлатова. (2019) The variation of teaching kids to greeting in Uzbekistan and Great Britain. Молодой ученый, (1), 212-213
5. Uktamovna, H. D. (2019). OPPORTUNITIES FOR ENGLISH-SPEAKING VOICES IN THE SPEECH OF CHILDREN OF THE FIRST SCHOOL AGE. PROBLEMS AND SOLUTIONS OF ADVANCED SCIENTIFIC RESEARCH, 1(1), 226-229
6. U. H. Davlatova and D. Rustamova, "The role of psycholinguistics in foreign language education: Language policy in Uzbekistan," Educational Administration: Theory and Practice, vol. 30, no. 6, pp. 3059-3064, 2024. <https://doi.org/10.53555/kuey.v30i6.5974>

7. Скачкова И.И. Гендерная проблематика в зарубежном теоретическом языкознании: к истории вопроса [Текст] // Вестник ТГЕУ, Теория и методология гендерных исследований. – 2009. – № 4.
8. Смит С. Постмодернизм и социальная история на западе : про-блемы и перспективы [Текст] / С. Смит // Вопросы истории. 1997. –№ 8. – С. 154-161.
9. Скачкова И.И. Гендерная проблематика в зарубежном теоретическом языкознании: к истории вопроса [Текст] // Вестник ТГЕУ, Теория и методология гендерных исследований. – 2009. – № 4.
10. Гриценко Е. С. Типология асимметричных отношений в гендерной категоризации [Текст] / Е. С. Гриценко // Вестник Нижегородского государственного лингвистического ун-та им. Н. А. Добролюбова. –Выпуск 1. – Н. Новгород : НГЛУ, 2005. – С. 62 – 70.
11. Кирилина А. В., Томская, М. В. Лингвистические гендерные исследования [Текст] / А. В. Кирилина, М. В. Томская // Отечественные записки. – М. . – 2005. – № 2 (23). – С. 3.
12. Рябова Т.Б. Стереотипы и стереотипизация как проблема ген-дерных исследований [Текст] // Личность. Культура. Общество. – Т. V. – Вып. 1–2 (15–16). – 2003. – С. 120–139.
13. Бернгардт О.В. Речь ребенка-билингва как предмет лексикографического описания (ситуация русско-немецкого двуязычия [Текст] : дис. ... канд. фил. наук : 10. 02. 19 / Бернгардт Оксана Вячеславов-на. – Ярославль, 2009. – 218 с.
14. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка [Текст] / сост., новая ред., пер. с фр., коммент. Вал. А. Лукова, Вл. А. Лукова. – М.: Педагогика-Пресс, 1994. – 526 с.
15. Обиджонов А. Мўттивоймисан, Миттивоймисан? Қисса. Шарқ нашриёти - матбаа бош таҳририяти, 2019. – Б. 108.
16. То'xtaboyev X. Quyonlar saltanati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – В. 92-112-202-214
17. То'xtaboyev X. Qaylardasan bolaligim. Qissalar, ertaklar, hikoyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – В. 82-91-116
18. Большая медицинская энциклопедия. гл. ред. Петровский Б.В. – М.: Советская энциклопедия, 1976. – Т. 4. (576)
19. Баллон А.А. Психическое развитие ребенка [Текст] – М.: Академия педагогических наук СССР; «Просвещение», 1967. – 194 с.
20. Искандарова Г. Бола нуткий фаолиятида ижтимоий муҳитнинг аҳамияти // УзМУ хабарлари. – Тошкент: ЎзМУ, 2003. – Б. 87.
21. Қўшназаров А. Шайтонни тутган Шертой. – Тошкент: Global books, 2020. – В. 85.
22. David Williams. (2008) “The Boy in the Dress” EN, Kids . – P. 7-85.
23. Otto Jespersen professor in the University of Copenhagen “Language: its nature, development and origin” New York Henry Holt & Company Printed in Great Britain (All rights reserved) 1922. London: G. Allen & Unwin. 353–363. – 456 page.
24. Garai J. E., & Ssheimfeld, A. (1968): Sex differences in mental and behavioral traits. Genetic Psychology Monographs, 77. – Provincetown, 169-299.
25. <https://gulxan.uz/hikoyalar/ko'ngilga-ekilgan-havas>
26. https://www.youtube.com/watch?v=m92O_yYaYLY
27. <https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/164715/1/>
28. <https://www.youtube.com/watch?v=XZQa8m2NjMU>

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000